




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2020-2021-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY
DAVLAT ATTESTATSIYASI O'TKAZISH BO'YICHA TARIX FANIDAN
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



Toshkent-2021

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta'lim markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengashi 2021-yil 30-martdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

N. Hakimov - Respublika ta'lim markazi metodisti.

J. Hasanov - Respublika ta'lim markazi metodisti.

Taqrizchilar:

Sh. Ergashev - O'zR FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n., dotsent.

F. Mahmudova - Respublika ta'lim markazi metodisti.

Q. Exsonov – Toshkent shahar Yashnobod tumani 231-maktab tarix fani o'qituvchisi

TARIX 9-SINF

“Tarix” fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlangan. Ushbu topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo‘lib, har bir biletta uch yo‘nalishdagi mavzu asosida uchtdan savol beriladi. Topshiriqlar quyidagi mazmunda tuziladi:

1. O‘zbekiston yoki Jahon tarixida mavjud bo‘lgan biror-bir joy nomi bilan bog‘liq bo‘ladi.
2. O‘zbekiston yoki Jahon tarixi fanida davlat boshqaruvi faoliyati yoritilgan hukmdorlardan biri beriladi.
3. O‘zbekiston va Jahon tarixi fanida o‘rganiladigan mavzulardagi atamalarga izoh beriladi.

Birinci savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

T/r	Baholash	Ball
1	Joy nomini atala boshlagan davrini ayta olishi	1 ball
2	Qayerda joylashganligini xaritadan ko‘rsata olishi	1 ball
3	Tarixiy davlatlarni taqqoslay olishi	1 ball
4	Shu hududda qanday davlatlar mavjudligini bilishi	1 ball
5	Hozirgi kundagi o‘rni (davlat, viloyat) ni bilishi	1 ball
Jami		5 ball

Ikkinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

T/r	Baholash	Ball
1	Tarixiy shaxsning to‘liq (yoki asl ismi) ismini bilishi	1 ball
2	Yashagan sanasini (sana noma’lum bo‘lsa asrini) bilishi	1 ball
3	Ichki siyosatdagi islohotlarini ayta olishi	1 ball
4	Diplomatik munosabatlarga oid dalillar keltirishi	1 ball
5	Davlatchilik tarixidagi o‘rniga baho berishi	1 ball
Jami		5 ball

Uchinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

T/r	Baholash	Ball
1	Tarixiy atamaning ma’nosini tushunishi.	1 ball
2	Tarixiy atamaga to‘g‘ri va to‘liq izoh bera olishi	1 ball
3	Tarixiy atama bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’lumotlar bera olishi	1 ball
4	Tarixiy atama qo‘llanilgan tarixiy voqealardan misollar keltira olishi	1 ball
5	Tarixiy atamaning qaysi tildan kelib chiqqanligini bilishi	1 ball
Jami		5 ball

Izoh: har bir yo‘nalish bo‘yicha ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo‘lsa – 4 baho, yuqori bo‘lsa – 5 baho. Masalan: $5+4+5=14:3=4,6$ yaxlitlansa 5 baho, $4+4+5=13:3=4,3$ yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining “O‘zbekiston tarixi” sahifasiga qo‘yiladi.

O‘quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko‘rishlari uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metodbirlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo‘shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletleri 4 ta savoldan iborat bo‘ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to‘rtinchi savollari o‘qituvchi tomonidan tuzilib, maktab metodbirlashmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Tarix 9-sinf
1-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Qadimgi Misr va Qadimgi Xitoy sivilizatsiyalarini taqqoslang. 2. Napoleon Bonapartning Yevropa tarixidagi tutgan o‘rni haqida fikr bildiring. 3. “Miniatura” atamasiga izoh bering.
2-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Ilk o‘rta asrlardagi Xorazm va Xioniylar davlatini taqqoslang. 2. Amir Temurning dunyo tarixidagi tutgan o‘rni haqida mulohaza yuriting. 3. “Oligarxiya” atamasiga izoh bering.
3-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Somoniylar va G‘aznaviylar davlatini o‘zaro taqqoslang. 2. Buyuk Karlning harbiy yurishlari. 3. “Kartel” atamasiga izoh bering.
4-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. G‘arbiy Turk va Sharqiy Turk xoqonligini o‘zaro taqqoslang. 2. Pyotr I ning Rossiya tarixidagi tutgan o‘rni haqida fikr bildiring. 3. “Demobilizatsiya” atamasiga izoh bering.
5-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Movarounnahr haqida ma’lumot bering. 2. Ivan Grozniyning Rossiya tarixidagi o‘rni haqida fikr bildiring. 3. “Parij Kommunasi” atamasiga izoh bering.
6-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Qadimgi Mesopatamiya hamda yunon sivilizatsiyalarini taqqoslang. 2. Amir Nasrulloxon haqida ma’lumot bering. 3. “Shovinizm” atamasiga izoh bering.
7-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Urartu hamda Ossuriya podsholiklarini taqqoslang. 2. Olimxonning Qo‘qon xonligi tarixidagi tutgan o‘rni haqida fikr bildiring. 3. “To‘rtlar ittifoqi” atamasiga izoh bering.
8-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Fors podsholigi haqida ma’lumot bering. 2. Mirzo Ulug‘bekning Temuriylar tarixidagi o‘rni haqida fikr bildiring. 3. “Anarxizm” atamasiga izoh bering.
9-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Parfiya va Yunon-Baqtriyani o‘zaro taqqoslang. 2. Zahiriddin Muhammad Boburning dunyo tarixidagi tutgan o‘rni haqida ayting. 3. “Manifest” atamasiga izoh bering.
10-BILET
<ol style="list-style-type: none"> 1. Franklar davlatining Yevropa taraqqiyotidagi o‘rni. 2. Muhammad Shayboniyxonning O‘rta Osiyo tarixidagi tutgan o‘rni haqida fikr bildiring. 3. “Gimnaziya” atamasiga izoh bering.

11-BILET

1. Chexiya davlati haqida ma'lumotlar keltiring.
2. Abdullaxon II haqida ma'lumot bering.
3. "Missiya" atamasiga izoh bering.

12-BILET

1. Oltin O'rda xonligi haqida ma'lumot bering.
2. Husayn Boyqaro haqida ma'lumot bering.
3. "Konservativ" atamasiga izoh bering.

13-BILET

1. G'arbiy va Sharqiy Rim imperiyasi o'rtasidagi farqli hamda o'xshash jihatlarni taqqoslang.
2. Muhammad Rahimxon I ning Xiva xonligi tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.
3. "Federatsiya" atamasiga izoh bering.

14-BILET

1. Dashti Qipchoq haqida ma'lumot bering.
2. Doro I ning dunyo tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.
3. "Ekspluatatsiya" atamasiga izoh bering.

15-BILET

1. Shosh haqida ma'lumot bering.
2. Chingizxonning harbiy yurishlari haqida fikr bildiring.
3. "Karavella" atamasiga izoh bering.

16-BILET

1. Davan hamda Qang' davlatini o'zaro taqqoslang.
2. Jaloliddin Manguberding O'zbekiston tarixidagi tutgan o'rni haqida ayting.
3. "Espeditsiya" atamasiga izoh bering.

17-BILET

1. Qang' davlati haqida fikrlaringizni bildiring.
2. Oktavian Avgust haqida ma'lumot bering.
3. "Jevachi" atamasiga izoh bering.

18-BILET

1. Sparta shahar-davlati haqida ma'lumot bering.
2. Ismoil Somoniy haqida ma'lumot bering
3. "Gildiya" atamasiga izoh bering.

19-BILET

1. Qadimgi Afina va Sparta davlatlarini taqqoslang.
2. Mahmud G'aznaviy haqida ma'lumot bering.
3. "Dukchi" atamasiga izoh bering.

20-BILET

1. Qadimgi Xorazm va Kushon podsholigini o'zaro taqqoslang.
2. Yustinian I haqida ma'lumot bering.
3. "Delegat" atamasiga izoh bering.

21-BILET

1. Karfagen haqida ma'lumot bering.
2. Abulg'oziy Bahodirxon haqida ma'lumot bering.
3. "Manifest" atamasiga izoh bering.

22-BILET

1. Kesh haqida ma'lumot bering.
2. Amir Umarxon haqida ma'lumot bering.
3. "Chorizm" atamasiga izoh bering.

23-BILET

1. Maurya davlati haqida ma'lumot bering.
2. Boburiylar sulolasidan bo'lgan Shoh Jahonning Hindiston tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.
3. "Kommuna" atamasiga izoh bering.

24-BILET

1. Afrosiyob haqida ma'lumot bering.
2. Oliver Kromvelning Angliya tarixidagi o'rni haqida fikr bildiring.
3. "Diktatura" atamasiga izoh bering.

25-BILET

1. Prussiya qirolligi haqida ma'lumot bering.
2. Boburiylar sulolasidan bo'lgan Akbarshohning Hindiston tarixidagi o'rni haqida fikr bildiring.
3. "Kapital" atamasiga izoh bering.

26-BILET

1. Konstantinopol shahrining dunyo tarixidagi ahamiyati haqida fikr bildiring.
2. Ismoil I Safaviy haqida ma'lumot bering.
3. "Rezervatsiya" atamasiga izoh bering.

27-BILET

1. Axsikent haqida ma'lumot bering.
2. Otto fon Bismarkning Yevropa tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.
3. "Demokratiya" atamasiga izoh bering.

28-BILET

1. Baqtriya davlati haqida ma'lumot bering.
2. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman haqida ma'lumot bering.
3. "Ekspansiya" atamasiga izoh bering.

29-BILET

1. Avstriya-Vengriya imperiyasining Yevropa tarixidagi ahamiyati haqida fikr bildiring.
2. Periklning davlat boshqaruvi haqida ma'lumot bering.
3. "Koalitsiya" atamasiga izoh bering.

30-BILET

1. Kaspiyorti viloyati haqida ma'lumot bering.
2. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari haqida ayting.
3. "Rabot" atamasiga izoh bering.